

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA XAVSIZLIK MASALALARINING NORMATIV HUQUQIY ASOSI

Muxammadqulov Shohrubbek Erkin o‘g‘li

Annotatsiya

XX asrdagi yadro polegonlar XXI asrga kelib o‘z o‘rnini mafkuraviy polegonlarga bo‘shatib berdi. Natijada, yer yuzida geosiyosatda gegimonlikka intilayotgan davlatlararo “axborot siyosati”, “axborotlashgan jamiyat” degan tushuncha paydo bo‘ldi. Ushbu maqolada axborot xavfsizligining normativ huquqiy asoslari xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar:

Axborotlashgan jamiyat, global axborot makoni, psixologik xavfsizlik, ijtimoiy ongni manipulyasiya qilish.

Abstract

The nuclear battlefields of the 20th century gave way to ideological battlefields by the 21st century. As a result, the concept of interstate "information policy" and "information society" was born, striving for hegemony in geopolitics. This article deals with the normative legal basis of information security.

Keywords:

Information society, global information space, psychological safety, manipulation of social consciousness.

Umumjahon axborot globallashuvi jarayonlari axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini nafaqat mamlakatlar iqtisodiyoti va boshqa sohalariga joriy etish, balki axborot tizimlari xavfsizligini ta‘minlashni ham taqozo etadi. O‘zbekiston axborot va kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi xalqaro xavfsizlik tizimiga

Markaziy Osiyoda birinchilardan bo‘lib qo‘shildi. Shuningdek, axborot xavfsizligi borasida qator loyihalar, qonun hujjatlari ishlab chiqildi. O‘zbekiston Respublikasi axborot makonini muhofaza qilish va axborotdan foydalanishning huquqiy asoslarini shakllantirishda “o‘zbek modeli”ga xos bo‘lgan tadrijiy usuldan foydalandi. Buni huquqiy bazani tashkil etuvchi quyidagi asosiy qonunlar izchilligida ham ko‘rish mumkin:

- a) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (VII va XV boblari);
- b) “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi (1996-yil 26-dekabr) va “Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to‘g‘risida”gi (1997-yil 24-aprel) Qonunlar;
- c) “Axborot erkinligi prinsip va kafolatlari to‘g‘risidagi” Qonun (2002-yil 12-dekabr);
- d) “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish” konsepsiyasi (2010-yil 12-noyabr).

Konstitutsiyamizning 29-moddasi va 67-moddalarida axborot va so‘z erkinligi, OAVning mustaqilligi belgilab qo‘yilishi bilan bir qatorda Qonunda belgilangan cheklashlar bundan mustasnoligi va OAV o‘zlari berayotgan axborot haqqoniyligiga tegishli tarzda javobgar ekanliklari belgilab berilgan. Bu esa, demokratiyaning asl mohiyatini ko‘rsatuvchi belgilardan biri, chunki “demokratiyani hamma narsani qilish mumkin deb”[1] tushunish xato bo‘ladi.

To‘rt bob va 40 moddadan iborat yangi tahrirdagi “*Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida*” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni eng muhim qonunlardan biri hisoblanadi. Unda konstitutsiyadagi OAV erkinligi va huquqlari keng tarzda taqdim etiladi. Ayni paytda OAV erkinligi suiste‘mol qilishga yo‘l qo‘yilmasligi belgilab qo‘yilgan[2]. 2002-yil 12- dekabrda Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan “*Axborot erkinligi prinsip va kafolatlari to‘g‘risida*”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida axborot xavfsizligi sohasiga alohida to‘xtalib o‘tiladi va davlat, jamiyat, shaxsning bu boradagi xavfsizligiga bandma-band to‘xtalib o‘tiladi. Bizning fikrimizcha, bu Qonunning qabul qilinishiga va aynan, axborot xavfsizligi sohasiga katta e‘tibor

qaratilishiga sabab, O‘zbekiston aynan shu davrlardan global dunyo bilan har qachongidan faolroq integratsiyalasha boshlaganidir.

2010-yil 12-noyabrda oltita ustuvor yo‘nalishdan iborat “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish” Konsepsiyasi qabul qilindi. Konsepsiyaning uchinchi ustuvor vazifasi sifatida axborot sohasini isloh qilish, axborot va so‘z erkinligini ta‘minlash ko‘rsatiladi. Bunda OAVning demokratik jamiyat qurishdagi ahamiyati inobatga olindi. Zero, allaqachon rivojlangan demokratik davlatlarda OAV to‘rtinchi hokimiyat sifatida talqin etiladi.

Dastlab 2002-yil O‘zbekiston pochta va telekamunikatsiya agentligi o‘rniga Aloqa va axborotlashtirish agentligi tuzildi. Huddi shu voqea nazarimizda hozirgi vazirlik tuzishga boshlangan dastlabki tayyorgarlik va eksperiment edi.

2012-yil 16-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni e‘lon qilindi. Ushbu qo‘mita o‘zidan avvalgi tuzilgan tuzilmalar ishlarini davom ettirdi va ayni paytda uning oldiga yangi vazifa „elektron hukumat“ shakllantirish vazifasi yuklandi. Qo‘mita ishi tegishli vazirlik va tashkilotlar tomonidan kuzatib va tahlil qilib borildi.

Shuningdek, axborot xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo‘mitasi tomonidan quyidagi yo‘nalishlar qamrab olindi:

- Ma‘lumotlar uzatish, telekommunikatsiya tarmoqlari, teleradioefir hamda axborot tizimlarida axborot xavfsizligini ta‘minlashni takomillashtirish va rivojlantirish bo‘yicha davlat siyosatini yuritish;

- Axborot xavfsizligiga oid qonunchilik va me‘yoriy-huquqiy hujjatlarining yaratilishini tashkil qilish va bunda ishtirok etish;

- Axborot tizimlari komplekslari, resurslari va ma‘lumotlar bazalarining axborot xavfsizligini ta‘minlash;

- davlat organlarining axborot tizimlari va resurslari axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishga ko‘maklashish;

- davlat axborot tizimlari va resurslarining axborot xavfsizligini ta'minlash yuzasidan monitoring natijalari to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasiga belgilangan tartibda taqdim etish;

- telekommunikatsiyalar tarmoqlarining operatorlari va provayderlari bilan hamkorlik qilish, davlat organlarining kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish sohasidagi qonun buzilishlarining oldini olish masalalari bo'yicha birgalikdagi ishlarini tashkil etish va ularning faoliyatini muvofiqlashtirish;

- Internetning milliy foydalanuvchilarini Internet tarmog'i milliy segmentida axborot xavfsizligiga paydo bo'layotgan tahdidlar to'g'risida o'z vaqtida xabardor qilish, shuningdek axborotlarni muhofaza qilish bo'yicha konsultatsiya xizmatlari ko'rsatish;

- qonun buzuvchilarni tahlil qilish, identifikatsiyalashda, axborotlar makonidagi ruxsatsiz yoxud buzuvchi harakatlarni amalga oshirishda foydalaniladigan metodlar va vositalarni tahlil qilishda huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlik qilish;

- Internet tarmog'i milliy segmentida axborot xavfsizligi hodisalarining oldini olish bo'yicha o'zaro amaliy ishlarni tashkil etish maqsadida axborot xavfsizligi sohasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish singari yo'nalishlarni qamrab oldi.

O'zbekiston Respublikasi 2002-yil 1-dekabrda "Axborot erkinligi va prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi qonunda[4] axborotni muhofaza qilish bo'yicha quyidagi ta'rif keltiriladi:

Axborotni muhofaza etish – axborot borasida xavfsizlikka tahdidlarning oldini olish va ularni bartaraf etish chora-tadbirlari.

Saqlash, o'zgartirish, uzatish va ma'lumot maqsadlar uchun foydalanish ob'yekti bo'lgan tevarak olam haqidagi ma'lumotlarni, keng ma'noda axborot deb tushunish mumkin. Bu tushunchaga ko'ra siyosiy, harbiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik, ishlab-chiqarishga yoki tijoratga oid hamda maxfiy, konfidensial yoki maxfiy bo'lmagan bo'lishi mumkin.

Maxfiy axborot – foydalanilishi Qonun hujjatlariga muvofiq cheklab qo'yiladigan hujjatlashtirilgan axborot[5].

Hujjatlashtirilgan axborot – indentifikatsiya qilish imkonini beruvchi rekvizitlari qo'yilgan holda moddiy jismda qayd etilgan axborotdir.

Konfedinsial axborot – mamlakat qonunchiligi bilan foydalanish cheklanadigan hujjatlardagi axborot tushunilib, unga xizmat, kasbiy, tijorat va boshqa turdagi axborot kiradi[6].

O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-maydagi 848-XII-sonli “Davlat sirlarini saqlash to'g'risida”gi[7] Qonunning 1-moddasida davlat sirlari to'g'risida tushuncha beriladi:

Davlat siri – davlat tomonidan qo'riqlanadigan maxsus ro'yxatlar bilan chegaralab qo'yiladigan alohida ahamiyatli, mutloqo maxfiy harbiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va boshqa xildagi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi davlat sirlari hisoblanadi. Mazkur Qonunning 3-moddasida davlat sirlarining kategoriyalari kengaytirilgan:

“O'zbekiston Respublikasining davlat sirlari - davlat, harbiy va xizmat sirlarini qamrab oladi.

Oshkor etilishi respublika harbiy-iqtisodiy imkoniyatlarning sifat holatiga salbiy ta'sir etishi yoki O'zbekiston Respublikasi mudofaa qobiliyati, davlat xavfsizligi, iqtisodiy va siyosiy mafaatlari uchun boshqa og'ir oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar davlat sirini tashkil qiladi.

Oshkor etilishi O'zbekiston Respublikasi mudofaa qobiliyati, davlat xavfsizligi va Qurolli Kuchlari uchun og'ir oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan harbiy xususiyatga ega bo'lgan ma'lumotlar harbiy sirni tashkil qiladi.

Oshkor etilishi O'zbekiston Respublikasi manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan fan, texnika, ishlab-chiqarish va boshqaruv sohasiga doir ma'lumotlar xizmat siri hisoblanadi”.

Shiddat bilan rivojlanyotgan zamonda konfedinsial axborot hamda davlat siriga doir axborot himoyaga muhtojdir. Bundan tashqari axborot xavfsizligini ta'minlashga

doir bir qancha qo‘shimcha Qonun hujjatlari ishlab chiqilib amaliyotga tatbiq etildi. Shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi 2015-yil 9-dekabrda e‘lon qilingan “Elektron hukumat” to‘g‘risida”gi Qonunining 12-moddasi “Axborot xavfsizligini ta‘minlash prinsipi” deb nomlandi[8]. Ushbu Qonunga muvofiq, elektron davlat xizmatlari ko‘rsatishda foydalanadigan axborot tizimlari hamda axborot resurslarini tashqi hujumlardan asrash muhim vazifa etib belgilandi.

Qonunning ijrosini ta‘minlash maqsadida davlat siri, shaxsga tegishli ma‘lumotlarni, qonun bilan qo‘riqlanadigan ma‘lumotlardan ruxsatsiz foydalanishni oldini olish borasida texnik chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Avvalgi tashkilot va qo‘mita ishlari tahlil qilinib, yetarlicha tajriba to‘planganidan so‘ng 2015 yil 4-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi Prezident farmoni bilan yuqorida nomi keltirilgan qo‘mita tugatilib vazirlikka aylantirildi. Vazirlik OAV, “elektron hukumat”ni shakllantirish va axborot xavfsizligini ta‘minlash sohasidagi bosh tashkilot hisoblanadi. Vazirlik qoshidagi Axborot xavfsizligini ta‘minlash markazi axborot xavfsizligi sohasi bilan shug‘ullanadi. Markazning asosiy vazifalaridan biri *sohadagi huquqiy-yuridik hujjatlar bazasi bilan ishlash va uni shakllantirishni* davom ettirish.

Mustaqillik yillarida axborot xavfsizligini ta‘minlash sohasida yaratilgan huquqiy bazada yuridik jihatdan kamchiliklar deyarli mavjud emas, biroq uni amalga oshirish borasida oqsashliklar mavjud. Bu muammolarni hal etish va vazirlik faoliyatini rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalarni o‘rinli deb bilamiz:

- Yangicha fikrlovchi jurnalistlar avlodini shakllantirish, zero ular o‘z huquq va erkinliklarini va bir vaqtda majburiyatlarini to‘liq bilishsin;
- Kadrlar muamosini hal qilish uchun yangi dasturlarni amalga oshirish (INXA kabi);
- Vazirlik va OAV o‘rtasida hamkorlik muhitini shakllantirish;
- Sohadagi yangilik va qonunbuzilishi holatlari haqida televideniya orqali lavhalar namoyish etishni tashkil etish;

Ma'lumki mamlakatimizda axborot xavfsizligini ta'minlashda muhim me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilganidek xalqaro miqyosda ham kerakli normativ hujjatlar ishlab chiqilgan. 1983-yil AQSH Mudofa Vazirligi kompyuter xavfsizligi Agentligi TSEC (Ishonchli Tizimlarning Himoyalanganligini Baholash Kriteriyalari) nomli hisoboti chop etildi. Hamda u kitobni “To‘q sariq rangli kitob” deya nomlandi. Kitobda o‘zining potensial auditoriyasiga ega kompyuter tizimlarida maxfiy ma'lumotlarni saqlashning 7 ta kriteriyalari belgilab berilgan. AQSH Mudofaa Vazirligi kompyuter tizimlarini to‘liq nazoratga olish maqsadida vazirlik tasarrufida kompyuter xavfsizligi Milliy Markazi NCSC-TG-005 va NCSC-TG-011 nomli “Qizil kitob” qo‘llanmani nashr etdi. Bunga javoban Germaniya Axborot xavfsizligi Agentligi “Green Book” (Yashil kitob)ni chop etdi. Ushbu kitobda shaxsiy axborot hamda davlat miqyosida axborot xavfsizligini ta'minlashga doir kompleks tarzda o‘z aksini topdi. 1990-yilga kelib bu kitob Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya va Gollandiya davlatlari tomonidan muhokama qilinib tan olindi hamda Yevropa Ittifoqiga yuborildi. Yevropa Ittifoqi uning asosida Yevropa standartlarini ifodalovchi ITSEC (Axborot Tehnologiyalarning Himoyalanganligini Baholash Kriteriyalari) shu asnoda “Oq kitob” nashr qilindi. Bu kitobda axborot xavfsizligiga oid quyidagi kriteriyalar keltiriladi:

1. Axborot xavfsizligi;
2. Tizim xavfsizligi;
3. Mahsulot xavfsizligi;
4. Xavfsizlikka tahdid;
5. Xavfsizlik funksiyasining to‘plami;
6. Xavfsizlik kafolatlanganligi;
7. Xavfsizlik umumiy bahosi;
8. Xavfsizlik sinflari.

Yevropa “Oq kitob”da axborot xavfsizligiga oid 6 ta asosiy elementni hamda uning qismlarini o‘z ichiga oladi:

1. Axborot konfidensialligi (axborotni noqonuniy olishdan himoyalash);
2. Axborotni butunligi (axborotni noqonuniy o‘zgartirishdan himoyalash);

3. Axborotdan foydalana olishlik (axborot va tizim resurslarini noqonuniy yoki tasodifan tutib olishdan himoyalash);
4. Xavfsizlik maqsadlari (axborot xavfsizlik funksiyasi nima uchun kerak?);
5. Axborot xavfsizligi vazifalarining tasnifi;
6. Xavfsizlik mexanizmini ifodalash.

“Bugungi sharoitda, Internet va elektronika davrida iqtisodiyot tarmoqlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya keng joriy etish “Elektron hukumat” tizimi faoliyatini yanada rivojlantirish ustuvor ahamiyatga egadir. Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, ayni paytda global iqtisodiyotda kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari, dasturiy ta’minot mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularning asosidagi keng turdagi interfaol xizmatlar ko’rsatishni o’z ichiga olgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasining roli va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga ta’sir ko’rsatishi, katta hajmda axborot to’plash va uni umumlashtirish imkonini berishi, boshqarishning strategik darajada tashkil etish uchun keng imkoniyat ochib berishini unutmashimiz zarur.

Davlatlararo keskin siyosiy vaziyatlar yuz berayotgan ayni damda axborot xavfsizlik tizmining huquqiy asoslarini yaratish hamda uning xalqimiz ongiga singdirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish ustuvor vazifalarimizdandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Ommaviy axborot vositalari to’g’risidagi” O’zbekiston respublikasi Qonuni 6-modda (26.12.1997. yangi tahrir 15.01.2007).
2. Manba: <http://www.wipo.int/edocs/lexdocs/laws/uz/uz/uz013uz.pdf>
3. O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning axborotnomasi.-2003.-N1.–2-m.
4. O’zbekiston Respublikasining “Axborot erkinligi prinsplari va kafolatlari to’g’risida”gi 2002-yil 12-dekabr qonuni// O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning axborotnomasi.-2003.-N1.

5. “Axborot –kommunikatsiya texnologiyalari izzohli lug‘ati(ikkinchi nashr) –
www/undp.uz, www.ict.uz.
6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning axborotnomasi.-1993.-N.5.232-m.
7. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami.–2012.N.49.–611-m.
8. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimovning mamlakatimizni
2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga
mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustunvor yo‘nalishlariga
bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasida so‘zlagan ma’ruzasidan.